



Matbuot Kotibi Vazifalari

Berdiyorova Sevinch Aliddin qizi

Buxoro davlat universiteti Filologiya fakulteti

Axborot xizmati va jamoatchilik bilan aloqalar yo'nalishi

3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistondagi matbuot xizmati bo'limlari rahbarli vazifalari va ularning manbalari haqida tahlik olib boriladi

Kalit so'zlar: PR, O'zbekiston, Matbuot ximzati, Matbuot kotibi, davlat tashkilotlari, muassasalar, tashkilotlar,

Bugungi kunda zamonning rivojlanishi natijasida ko'plab sohalarga ham talab ortib bormoqda. Mana shunday talab va ehtiyoj ortib bugun butun dunyo jamiyatlarida yetakchi o'rinni egallagan sohalardan biri bu PR hisoblanadi. PR bu "publik realtion" jamoatchilik bilan aloqalar degan ma'noni bildirib, u ma'lum bir tashkilot yoki muassasalardagi jurnalistik faoliyatga o'xshash bo'lib asosan, tashkilotning o'z auditoriyasi bilan ishlashiga ko'maklashadi. PR haqida bir qancha ta'riflar mavjud bo'lib, ularning PRning kenglik sohasini ifodalashga ko'mak beradi desam adashmayman. Chunki hozirda PR o'zi ham tarmoqlanib, uning mayda bo'laklari mashhurligi uning jahonda yetakchi o'rinni egallashiga ko'mak bermoqda.

PR (PR) inglizcha "public relation" iborasining qisqartmasi bo'lib, "jamoatchilik bilan aloqalar" degan ma'noni anglatadi. PR-bu tashkilot yoki shaxs va ularning auditoriyasi o'rtaida imidjni, jamoatchilik fikrini yaratish, qo'llab-quvvatlash va mustahkamlash yoki sotishni rag'batlantirish maqsadida aloqa qilish jarayoni.¹. Bu izoh PRning bugungi kundagi tashkilotchilik faoliyatiga urg'u qaratib, bu asosan PRmanlar faoliyatini keltirib chiqaradi. O'zbekiston tajribasida esa bu mamlakatda ishlaydigan turli xil PR kompaniyalari harakatida ko'rindi.

Jamoatchilik bilan aloqalar, PR (ingl. qisqartirilgan: PR-pi-ar)-ijtimoiy — iqtisodiy va siyosiy raqobat tizimlarida obyekt tasvirini (g'oyalar, tovarlar, xizmatlar, shaxslar, tashkilot-firma, brend) qiymat jihatidan yaratish va joriy etish texnologiyalari ushbu obrazni hayotda ideal va zarur deb mustahkamlash maqsadida bir qator ijtimoiy guruhlar. Keng ma'noda-jamoatchilik fikrini boshqarish, jamiyat va davlat organlari yoki tijorat tuzilmalari o'rtaсидаги munosabatlarni, shu jumladan ijtimoiy, siyosiy yoki iqtisodiy jarayonlarni obyektiv tushunish uchun qurish.² Bunday turdag'i izohlar PRning tashkilotlar va muassasalar imidjni yaratishdagi ro'liga e'tibor qaratadi hamda uning jurnalistiklar auditoriyasi bilan ishslash jihatlarini ahamiyatini ochib beradi. Jahon miqyosida bunday yo'nalish PRning Matbuot xizmati sohasiga to'g'ri keladi.

O'z o'zidan kelib chiqadiki, matbuot xizmati bu PRning jurnalistiklar auditoriyasi bilash ishlar tamoyillariga urg'u berib, ishlaydigan yo'nalishi bo'lib, PRning davlat tashkilotlarida PR yo'nalishida ustuvor qo'llaniladi. O'zbekiston taribasida esa davlat qonun hujjalari bilan yo'lga qo'yilgan matbuot xizmatlarini faoliyatini aks ettiradi.

Matbuot xizmati PR yo'nalishi bo'lganlikda u o'z o'zidan auditoriya bilan muloqot qilish bilan shug'ullanadi. Lekin PRning boshqa tarmoqlaridan farqli jihatni bunda asosan, ma'lumotlarni taqdim etish orqali auditoriyani fikr mulohazalarini shakllantirishga e'tibor qaratiladi. Tashqi va ichki auditoriya uchun tadbirlar tashkil qilish koeffitsiyenti kamroq

¹ (<https://smart-estet.ru/>)

² (https://ru.wikipedia.org/wiki/Связь_с_общественностью)



bo'ladi.

Bu tizimda faoliyatning barcha rakursi OAV bilan ishlaga qaratilib, bo'lim rahbarining vazifasi esa rahbar faoliyati orqali tashkilotning imidjini rivojlanitirish, ichkarida bo'layotgan voqealar haqida tashqi auditoriyaga va qaysidir turda ichki auditoriyaga ma'lumot berishdan iborat.

Hokimlik axborot xizmatining faoliyati shartli ravishda ikki – ichki va tashqi yo'nalishga bo'linadi. Tashqi yo'nalish: hokimlikning tarkibiy bo'linmalari, ichki yo'nalish: Fuqarolar, OAV, jamoat tashkilotlari, tijorat tashkilotlari va boshqa idoralarning axborot xizmatlari.³ Namangan va Jizzax viloyatida joylashgan matbuot xizmatlari tahlili ostidagi qo'llanma yuqoridagi fikrlarning isbotidir.

Bu bo'limning rahbari esa bir qancha vazifalarni o'z zimmasiga oladi. Darhaqiqat, bu bo'lim rahbari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 22-sentyabrdagi "Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining jamoatchilik bilan aloqalarini rivojlantirish chora-tadbirlar to'g'risida"gi 203-sonli qarori qilinganligi munosabati bilan, mazkur xizmatga "Axborot xizmati" nomi berilgan bo'lsa, mana shu qaror bilan bo'lim rahbari matbuot kotibi sifatida e'tirof etila boshlagan.

Matbuot kotibi bu bo'limda rahbarlik faoliyatini yuritib, uning vazifalari tashkilot ajratgan shtat birliklaridan kelib chiqadi. Masalan, Jizzax viloyati matbuot xizmatida bir kishi uchun shtat birligi mavjud bo'lib, u ham matbuot kotibidan tashkil topgan. Ammo Buxoro viloyati matbuot xizmati jami 3 nafar shtat birlik ajratgan hisoblanadi. Jizzax viloyati hokimligi matbuot kotibi barcha yumushlarni o'zi barajarishga to'g'ri keladi. Shundan kelib chiqib, uning vazifalari salmog'i ortadi. Buxoro viloyatida esa bu jarayonlar biroz boshqacha bo'lib, rahbar faqat jarayonlarni tashkil etish ishlarini boshqarish va nazorat qilish umumiyligi matbuot kotiblari faoliyatini nazorat qilishni bajarib, qolgan yumushlar boshqa xodimlar o'rtaida taqsimlanadi. Xususan, Axborot xizmatlari uchun amaliy qo'llanma: jamoatchilik bilan samarali muloqot qo'llanmasida AXning maqsad va vazifalariga muvofiq uning tashkiliy tuzilmasi va shtatlar jadvali aniqlab olinadi. Vazifalar hajmi kichik bo'lgan taqdirda, bir nafar matbuot kotibining o'zidan iborat axborot xizmatini tashkil etish mumkin. Kotib eng kam texnik vositalar yordamida hokimlik axborot xizmatining barcha funksiyalarini bajaradi. Agar shahar yoki tuman aholisi zinch joylashgan yoki bu viloyat hokimligi darajasida bo'lsa, u holda shtatlar birligi sonini oshirish mumkin bo'ladi. Bunda quyidagi variantlar bo'lishi mumkinligi keltirib o'tiladi.

Matbuot kotibining vazifalari asosan, qonunchilikda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 27.06.2019-yildagi PQ-4366-son "Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta'minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarori bilan tartibga olinadi hamda bir qancha talablar e'tirof etiladi. Mana shu kategoriyalar asosida OAKA tomonidan nazorat tadbirlari o'tkaziladi. Ta'kidlab o'tish kerakki, bunday nazorat tadbirlari 2018-yil, 2020-yil, 2021-yillar davomida eng yaxshi yil matbuot kotiblari aniqlab kelinmoqda.⁴ Ushbu yo'nlish bo'yicha tashkilot matbuot ximatlarini faoliyatini tahlil qilish jarayoni ham yuqoridagi prezident qaroridan kelib chiqqan holda

- axborot xizmati rahbari faoliyati ish hajmi

³ (Axborot xizmatlari uchun amaliy qo'llanma: jamoatchilik bilan samarali muloqot / N. Qosimova, G. Bobojonova, L. Islomova. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2013. 132b.)

⁴ <https://kun.uz/uz/news/2021/02/26/vazirlilar-va-hokimliklarning-eng-yaxshi-matbuot-kotiblari-aniqlandi>



- axborot xizmati rahbari ish faoliyati sifati
- axborot xizmati rahbari ish samaradorligi kategoriyalari bo'yicha tahlil qilinadi.


Xulosa qilib aytganda, Matbuot xizmati PRning kichik yo'nalishlaridan biri bo'lib, O'zbekiston tajribasidan asosan, davlat tashkilotlaridagi Matbuot ximatlarida ommalashgan. Ushbu bo'limning rahbari esa Matbuot kotibi hisoblanib, uning ishi bir qancha vazifalarni o'z ichiga oladi. Aytish mumkinki, uning vazifalari jarayonlardan kelib chiqib, bir nechta tamoyillar asosida tashkil qilinadi. Masalan

- Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan beriladigan kategoriyalar
- Tashkilotning bo'limga ajratgan shtat birlklari
- Tashkilotning maqsad tamoyillari
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, PQ-4366сон "Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta'minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" "qarori⁵

Umumiy qilib aytganda esa mabuot kotiblarning vazifalari quyidagilar hisoblanadi. Ular:

1.	hokimlikning axborot siyosatini amalga oshirish uchun hokim bilan birgalikda media-rejani ishlab chiqish;		hududiy OAV pozitsiyasi hamda hududdagi jamoatchilikning hokimlik faoliyatiga nisbatan fikri to'g'risida hokimni tezkor xabardor qilish;
	hokimga hududiy muammolar to'g'risida qisqa axborot xabarlarini muntazam (masalan, haftasiga marta) taqdim etish;		hokimlik faoliyati to'g'risida yangiliklar, lavhalar va boshqa materiallarning chiqishi uchun axborot rejasini ishlab chiqish (1-3 oy uchun bo'lgani ma'qul);
	hokimlik faoliyatiga daxldor axborot materiallarini tayyorlash (matbuot relizi, foto byulletenlar, video va audiomateriallar, intervyu va hokazo);		axborot xizmati faoliyatini tashkil etadi, rejalashtiradi va nazorat qiladi;
	hokimlikning boshqa bo'linmalari bilan o'zaro hamkorlikni amalga oshiradi		axborot xizmatida kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yishni ta'minlaydi;
	xodimlar o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi		xodimlarning kasb mahoratini oshirish uchun sharoit yaratadi.
	OAV, boshqa tashkilot va fuqarolar tomonidan hokimlik faoliyati yuzasidan berilishi mumkin bo'lgan savollariga javoblarni oldindan tayyorlash;		hokim bilan kelishilgan holda, hokim yoki boshqa hokimlik xodimlarining matbuot anjumanlari, brifinglar, intervyu va fuqarolar bilan uchrashuvlarini tashkil etish hamda o'tkazish;
	hokimlikning rasmiy veb-sayti uchun axborotni tayyorlash va		hokimlik va hududdagi boshqa tashkilotlar faoliyati to'g'risida

⁵ <https://lex.uz/docs/-4390513>



	joylashtirish;		OAV xabarlarini monitoring va tahlil qilish;
.	hokimlik faoliyati to‘g‘risida e’lon qilingan ma’lumotlarning ishonchligini tahlil qilish;	.	tushuntirish xatlari, raddiyalar tayyorlash va hokazo.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. ¹ (<https://smart-estet.ru/>)
2. ¹ (https://ru.wikipedia.org/wiki/Связь_с_общественностью)
3. (Axborot xizmatlari uchun amaliy qo‘llanma: jamoatchilik bilan samarali muloqot / N. Qosimova, G. Bobojonova, L. Islomova. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2013. 132b.)
4. <https://kun.uz/uz/news/2021/02/26/vazirliklar-va-hokimliklarning-eng-yaxshi-matbuot-kotiblari-aniqlandi>
5. <https://kun.uz/uz/news/2021/08/24/vazirliklar-va-mahalliy-hokimiyatlar-matbuot-kotiblarining-reytingi-elon-qilindi>
6. <https://lex.uz/docs/-4390513>